



64. Qo'shish va ayirish operatsiyalari, ularning bog'liqligi

Yondosh mavzu:
ob-havo


Qo'shish, ayirish,
operatsiya



Qismlarni toping



- Ob-havoni kuzatish jadvalida Aziz ba'zi belgilarni o'zgartirdi. Belgilarga qarang va ularda nima o'zgarganini ayting.



- Belgilangan qoidalar boyicha o'zgartiring va nima hosil bo'lganini daftaringizga yozing:

	Bitta bo'g'in qo'shing	?
651	Raqlamlar o'rnini almashtiring	?
278, 756, 109, 500	Kamayish tartibida joylashtiring	?
789	Sonlarni teskari tartibda yozing	?

Obyektni o'zgartiruvchi amal operatsiya deb ataladi



$\rightarrow$
rangini
o'zgartirish

$\rightarrow$
o'lchamini
o'zgartirish

$7 \rightarrow 9$
2 ta orttirish

Ayrim operatsiyalar maxsus belgilar bilan yoziladi:

qo'shish operatsiyasi: $2 + 3$

ayirish operatsiyasi: $5 - 2$

64. Qo'shish va ayirish operatsiyalari, ularning bog'liqligi



3. 83, 124, 378 sonlari ustida quyidagi operatsiyalarni bajaring:

- a) 100 ta orttirish; b) 80 ta kamaytirish;
d) 150 soniga qo'shish; e) 509 sonidan ayirish.



4. $278 + 395 = 673$ ekanini bilgan holda, quyidagilarni toping:

$395 + 278$	$673 - 278$	$673 - 395;$
$279 + 394$	$673 - 279$	$673 - 394;$
$279 + 396$	$674 - 278$	$672 - 278.$



5. Toshkentda yiliga o'rtacha 139 kun yog'ingarchilik bo'ladi. Toshkentda yiliga necha kun yog'ingarchilik bo'lmaydi? Tekshirish operatsiyasini bajaring.



6. Yanvar oyida 14 kun bulutli, undan 6 kun kam quyoshli bo'ldi, qolgan kunlarda qor yog'di.

- a) Yanvar oyida necha kun qor yog'di?
b) Qorli kunlar quyoshli kunlardan necha kun ko'p bo'ldi?
Yana qanday savollar berish mumkin?



7. Dekabr oyida do'kon 375 ta rangli soyabon va undan 36 ta ko'p oddiy soyabon sotdi. Dekabr oyida jami qancha soyabon sotilgan?



8. Ifodalarning qiymatini toping.

$(365 - 148) + (435 - 326)$ $(849 - 356) - (129 + 245)$



9. Yomg'irli kunlarda maktabga 246 nafar bola soyabon bilan, qolganlariplash kiyib kelgan. Plash kiygan bolalar soyabonli bolalardan 98 nafar kam edi. Maktabga jami necha nafar bola kelgan?